

TUXTANAZAROV Dilmurod Solijonovich
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Zamonaviy axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari kafedrası PhD

KURGANBAYEV Jasurbek Ikramjanovich
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
magistranti

KIBERMAKONDA YOSH AVLODNI SALBIY AXBOROTLARDAN HIMOYALASH VA NAZORAT QILISH TIZIMLARI

СИСТЕМЫ ЗАЩИТЫ И КОНТРОЛЯ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ ОТ НЕГАТИВНОЙ ИНФОРМАЦИИ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ

SYSTEMS FOR PROTECTION AND CONTROL OF THE YOUNG GENERATION FROM NEGATIVE INFORMATION IN CYBERSPACE

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh avlodni salbiy axborotlardan himoyalash va ularni kibermakonda nazorat qilishning zamonaviy tizimlar haqida ma'lumotlar berilgan. Hozirgi kunda farzandlarni internetda nazorat qilish uchun FamiSafe tizimining imkoniyatlari bayon qilingan. Fami safe va Fami safe junior mobil ilovalarini o'rnatish va ishga tushirish bo'yicha yo'riqnomalar keltirib o'tilgan. Fami safe tizimining imkoniyatlari va qulayliklari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Fami safe, kibermakon, internet, salbiy axborot, kontent, mobil ilova, tizim, foydalanuvchi, dastur, android, monitoring, cheklov.

Аннотация. В данной статье представлена информация о современных системах защиты молодого поколения от негативной информации и контроля над ним в киберпространстве. В настоящее время описаны возможности системы FamiSafe для наблюдения за детьми в Интернете. Предоставляются инструкции по установке и запуску мобильных приложений Fami safe и Fami safe junior. Проанализированы возможности и удобства системы FamiSafe.

Ключевые слова: Fami safe, киберпространство, интернет, негативная информация, контент,

мобильное приложение, система, пользователь, программа, андроид, мониторинг, ограничение.

Abstract. This article provides information about modern systems for protecting the younger generation from negative information and controlling it in cyberspace. At present, the possibilities of the FamiSafe system for monitoring children on the Internet are described. Instructions for installing and running the Fami safe and Fami safe junior mobile apps are provided. The possibilities and conveniences of the FamiSafe system are analyzed.

Keywords: Fami safe, cyberspace, internet, negative information, content, mobile application, system, user, program, android, monitoring, restriction.

KIRISH


Hozirda rivojlanib borayotgan axborot asrida yoshlarning turli xil axborot xurujlaridan himoya qilish maqsadida har sohada turli xil izlanishlar olib borilmoqda. Shu jumaladan axborot texnologiyalarida ham bu ishlar amalga oshirilmoqda. Rivojlangan davlatlarda bolalarning smartfonlardan foydalanishi o'rtacha o'n yoshdan boshlanadi. Nazoratsiz qolgan bolalar gadjetlar orqali keraksiz va salbiy oqibatli kontentlar hamda ilovalardan foydalanishlari mumkin. Bolalarni zamonaviy qurilmalardan nazoratsiz foydalanishi ko'plab ota-onalarni tashvishga solishi tabiiy holat. Farzandlarni smartfondagi faoliyatini ota-onalar nazorat qilish jarayoni ularning xavfsizligini ta'minlashda muhim vositadir.

Internetda oila a'zolarining salbiy oqibatli kontentlardan himoya qilishning turli usullari mavjud. Bunday nazorat qiluvchi tizimlarning imkoniyatlari qancha ko'p bo'lsa albatta shuncha yaxshidir. Bugungi kunda farzandlarni himoyalovchi va nazorat qiluvchi tizimlarda xavfsiz rejimlarni o'rnatish, farzandlar telefonini masofadan nazorat qilish va kuzatish, farzandlarni joylashgan o'rni bo'yicha nazorat qilish hamda shunga o'xshash ko'plab imkoniyatlar mavjud [7].

ASOSIY QISIM


Yuqorida keltirilgan ko'plab vazifalar mavjud bo'lgan tizimlardan biri bu Wondershare's FamiSafe dasturidir. Ushbu "FamiSafe" deb atalgan dasturiy mahsulotning vazifasi farzandlarning virtual olamda turli xil axborotlardan foydalanishni nazorat

qilish va ularni ota-ona nazorati ostida monitoring qilishdan iborat. Ushbu dasturiy mahsulot turli xil operatsion tizimlar uchun ishlab chiqilgan tizim hisoblanadi.




1-rasm. FamiSafe dasturining ishlash muhitlari

“FamiSafe” ota-onalarga farzand gadgetlarini nazorat qilish, real vaqtda joylashuvni kuzatish va bolalar qurilmalaridagi nomaqbul kontentni aniqlash imkonini beradi. Hozirda bu dasturni ko‘plab android tizimi foydalanuvchilari ishlatib kelmoqda. FamiSafe dasturiy mahsuloti ikkita ilova sifatida ishlab chiqilgan, ya’ni birinchisi ota-onaning mobil telefoniga o‘rnatiladi. Ikkinchisi farzandning mobil yoki kompyuter qurilmasiga o‘rnatiladi[5,6,7].




2-rasm. FamiSafening ota-ona va farzand uchun dasturlari

Dasturning dastlabki ko‘rinishi dastur bilan tanishuv va uning imkoniyatlari haqida foydalanuvchiga ma’lumot beradi. Foydalanuvchi sifatida bevosita ota-onalarni va farzandlarni nazarda tutsak bo‘ladi.




3-rasm. Dastur bilan tanishuv sahifalari

Dastur ma’lum miqdorda tanishtirilgandan so‘ng, dasturdan foydalanish uchun ro‘yxatdan o‘tish talab etiladi. Dastlab ro‘yxatdan o‘tish vaqtida ushbu dastur test sinovi sifatida uch kun davomida bepul ishlaydi va undan so‘ng oylik yoki yillik to‘lov qilishni talab qiladi.



4-rasm. Tizimdan ro‘yxatdan o‘tish.


Ushbu jarayondan so'ng bevosita dasturga kirish jarayoni boshlanadi. Dasturda ro'yxatdan o'tishning bir necha usullari mavjud. 5-rasmda dasturdan ro'yxatdan o'tish ya'ni akkaunt yaratish, ro'yxatdan o'tish (Login) va yana dastur bilan tanishish maqsadida dasturga mehmon sifatida tanishib chiqish imkoniyatlari ham mavjud. Mehmon sifatida foydalanishni boshlaganda foydalanuvchidan hech qanday oylik yoki yillik paket sotib olishni taklif qilmay va shu bilan birgalikda dasturning funksional bo'limlarga to'liq ruhsat bermaydi. Mehmon sifatida faqat dasturning imkoniyati bilan tanishib chiqishga imkon beradi.



5-rasm. Tizimdan foydalanish usullari.

Tizimdan foydalanish uchun ro'yxatdan o'tish bo'limi tanlanadi hamda ro'yxatdan o'tishda talab qilinadigan ma'lumotlar to'ldiriladi. FamiSafe tizimiga ro'yxatdan o'tish yuqorida nazarda tutilgandek bir qancha usullar orqali amalga oshirish mumkin. Ya'ni foydalanuvchining Google akkauntiga ulash orqali yoki Facebook akkaunt orqali ro'yxatdan o'tishni amalga oshirish imkoniyatlari ham mavjud. Ro'yxatdan o'tish odatiy tashkil etilishi foydalanuvchi elektron pochta va tizim uchun shaxsiy parol talab etiladi. Tanlanadigan parolning murakkabligi va uni yodda saqlab qolish talab etiladi. Sabab hozirgi kunda turli xil kombinatsiyali oson parollarni ochish imkoniyati yuqori bo'lganligi sabab murakkab parol tanlash tavsiya etiladi. Parolni qayta terish orqali foydalanuvchi parolni to'g'ri kiritilganligiga

ishonch hosil qiladi. Shu bilan foydalanuvchi dasturdan ro'yxatdan o'tgan hisoblanadi. Uning ma'lumotlari bazada saqlanadi.




6-rasm. Tizimdan ro'yxatdan o'tish jarayoni.

Shuni ta'kidlash joizki, dasturdan ro'yxatdan o'tish vaqtida ushbu ilovaning ommaviy oferta shartlari bilan tanishib o'tish tavsiya qilinadi. Sababi har bir foydalanuvchi elektron pochta nomi bilan ro'yxatdan o'tganligi bois unga bog'langan ma'lumotlardan foydalanish holatlari va yana shunga o'xshash o'ziga xos bo'lgan shartlar bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tizimdan ro'yxatdan o'tib bo'lgandan so'ng tizimga login orqali kirishda ham foydalanuvchi uchun bir qancha qulay imkoniyatlar yaratilgan. Foydalanuvchi dasturdan chiqib ketgan holatda uning elektron pochta manzili tizimda saqlanib qoladi va dasturga qayta kirmoqchi bo'lgan taqdirda o'sha saqlanib qolgan electron pochta bilan kirishni taklif qiladi. Odatda bu kabi imkoniyatlar mobil ilovalarda juda kam uchraydi. Ya'ni bu ishni foydalanuvchi qo'lda amalga oshirishiga to'g'ri keladi. Akkaunt yaratish vaqtida umumiy statistikaga qaraganda foydalanuvchilarning 70% ga yaqini o'zlari yaratgan shaxsiy parollarini unutib yuboradilar. Shu sababli hozirgi kunda barcha ro'yxatdan o'tuvchi tizimlarda parolni qayta tiklash imkoniyati mavjud. Shu qatorda ushbu ilovada ham bu imkoniyat mavjud va bu amaliyotga tatbiq qilingan[2,3,4].

Yuqorida dasturdan ro'yxatdan o'tish va akkaunt orqali dasturga kirish batafsil keltirib o'tildi. Mobil ilovaning ichki funksionalligi va UI (User Interface) foydalanuvchi bilan dasturning o'zaro aloqasi hamda ichki dizayniga to'xtalib o'tamiz. Birinchi o'rinda "FamiSafe


Parent” dasturga kirgandan so‘ng ota-onalardan farzandining qurilmasini ushbu ilovaga bog‘lashni so‘raydi. Ishni farzandning telefoniga farzand uchun FamiSafe Jr ilovani o‘rnatish bilan davom ettiramiz (7-rasm).



7-rasm. Farzand telefoniga tizimni o‘rnatish va ota-onaga bog‘lash jarayoni.


Berilgan oynadan “Install FamiSafe Kids” tugmani bosish orqali foydalanuvchi ya’ni ota-onaga farzand qurilmasini ulash oynasiga o‘tiladi. Keyingi oynada ota-ona qurilmasini farzandning ilovasi (FamiSafe Jr) ga ulanishini taminlash uchun generatsiya qilingan QR kodni skaner qilish yoki tasodifiy 6 xonalik kodni kiritish talab etiladi. Bundan tashqari ushbu sahifada 6 xonalik kodni qayta generatsiya qilish ham mumkin[1,3].

Farzand dasturi (Fami Safe Jr)ni o‘rnatish jarayonida tizim operatsion tizimdan kerakli bo‘limlarga ruhsat berishni so‘rab boradi. Bu holat nafqat Android operatsion tizimida balki boshqa operatsion tizimlarda ham yangi mobil ilova o‘rnatish jarayonida qurilma imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha ruhsat so‘raladi. Sababi, turli xil g‘arazli maqsadlarda yaratilgan dasturlar hozirgi kunda juda ko‘plab uchramoqda. Ushbu FamiSafe Jr dasturida ham ota-ona dasturiga ilovani bog‘lash maqsadida kerakli ruhsatlar taqdim etilishi lozim hisoblanadi. Quyidagi oynalarda (9-rasm) operatsion tizimdan ruhsat so‘rash jarayonlari keltirilgan.



8-rasm. Android operatsion tizimida Fami Safe Jr tizimiga ruhsat so‘rash jarayonlari


Yuqoridagi barcha ruhsatlar farzandning qurilmasi tomonidan berilgandan so'ng Fami Safe Jr tizimi quyidagicha ko'rinishda bo'ladi va "Next" tugmasini bosib tizimni ishni yakunlaymiz.



9-rasm. Fami Safe Jr tizimining interfeysi.


Yuqorida keltirilgan oynada (9-rasm) foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida FamiSafe Jr tizimini o'rnatish bo'yicha video qo'llanma sifatida alohida sahifa yaratib qo'yilgan.

Ishni so'ngida ota-onaning dasturi (FamiSafe) farzandning dasturi (FamiSafe Jr) ga to'liq bog'langan holatda bo'ladi. Farzandning dasturi (FamiSafe Jr) ni ishga tushirishda dastlab dasturni smartfondan o'chirish yo'riqnomasi bayon qilinadi (10-rasm). Bu yo'riqnomada farzandning ixtiyori bilan tizimni o'chirib yuborish mumkin emasligi keltirib o'tilgan. Bevosita farzandning dasturi ota-onaning dasturiga bog'langanligi sabab uni o'chirish jarayoni ham ota-ona ixtiyorida bo'ladi.



10-rasm. FamiSafe Jr ni smartfondan o'chirish yo'riqnomasi

FamiSafe ota-ona dasturining asosiy imkoniyatlari haqida batafsil ma'lumot keltirib o'taylik. Ota-ona dasturining asosiy foydalanuvchi interfeysi quyidagicha bo'ladi (11-rasm).




11-rasm. Ota-ona dasturining asosiy foydalanuvchi interfeysi

Asosiy sahifa 3 sahifadan iborat bo'lib, ular:

- Home (Uy);
- Notice (Eslatma);
- Account (Shaxsiy hisob).

FamiSafe ota-ona dasturining Home (Uy) sahifasida farzandni nazorat qilinishi mumkin bo'lgan barcha imkoniyatlar mavjud (12-rasm).



12-rasm. FamiSafe ota-ona dasturining Home (Uy) sahifasi imkoniyatlari.

12-rasmda ko'rsatilgan rasmlarda Home (Uy) sahifasining imkoniyatlariga to'xtalib o'taylik:

- Farzandning bog'langan qurilmasining umumiy ma'lumotlar;
- Screen Time (Ekran aktivligi);
- App Blocker (Ilovani bloklovchi);
- Activity Report (Harakatlar hisoboti);
- Explicit content detection (aniq kontenti aniqlash);
- You Tube App control (YouTube ilova nazorati);
- All Feature (Barcha imkoniyat);
- Live Location (Real vaqtdagi geolokatsiya);
- Screen Time Rules (Ekran vaqti qoidalari);
- Most useo apps (Ko'p foydalanilgan ilovalar);
- Recent Device Activity (Yaqinda foydalanilgan ilovalar)

- Today You Tube Summary (Bugungi YouTube xulosalar);
- Today TikTok Summary (Bugungi TikTok xulosalar);
- Recent Browser History (Joriy brauzer tarixi);
- Recent Search History (Joriy qidiruv tarixi);
- Recent Driving Report (Joriy boshqaruv hisobot);
- Add new feature (Qo'shimcha imkoniyat qo'shish) tugmasi;
- Har bir bo'lim asosida tushuntirish va batafsil ma'lumotlar keltirib o'tilib boriladi.

Xulosa

Hozirgi kunda yosh avlodni kibermakonga bog'lanib qolish muammolari dolzar hisoblanadi. Chunki dunyoda internet texnologiyalari orqali har kuni yuzlab yoki minglab yangi yoshlarni o'ziga bog'lab oluvchi tizimlar yaratilmoqda. Ushbu yaratilgan tizimlar yoshlarni vaqtini behuda sarflashiga yoki salbiy axborotlar bilan ularning ongini zaharlashga olib kelmoqda. Shunday ekan yosh avlodni ota-onalar kibermakonda nazorat qilishi juda zarur hisoblanadi. Albatta nazoratni famisafe, familylink yoki shunga o'xshash tizimlar orqali amalga oshiriladi. Bunda famisafe tizimining imkoniyatlari juda yuqori hisoblanadi[7,8].

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Adnyani, L. D. S., Mahayanti, N. W. S., & Suprianti, G. A. . (2020). PowToonBased Video Media for Teaching English for Young Learners: An Example of Design and Development Research. 394 (January 2012), – P. 221-226. <https://doi.org/10.2991/assehr.k.200115.036>
2. Anita, A. S., & Kardena, A. (2021). the Effect of Using Powtoon Toward Students ' Motivation in Writing. 6 (1), p. 1-13.
3. Dadamukhamedov A.I. (2019). Development of national network and corporate networks (in the case of Tas-IX network). International Journal of Human Computing Studies, 1 (1), p. 1-5. <https://doi.org/10.31149/ijhcs.v1i1.347>
4. Tuxtanazarov D.S., Buvashev S.O., Kibermakonda xavfsizlikni ta'minlashning zamonaviy usul va algoritmlari // Islom tafakkuri (2-son) 2021. – B. 157-160.
5. Tuxtanazarov D.S., Maxkamov A.A., Dadamuhamedov A.I., Axborotlashgan makonda yoshlar ongiga salbiy axborotlarning ta'siri // Islom tafakkuri (2-son) 2022, 244-247 b.
6. Tuxtanazarov D.S., Bekchanova S.A., Kurganbayev J.I., Zamonaviy tizimlar yordamida internetda yosh avlodni salbiy axborotlardan himoylash va ularni nazorat qilish // Islom tafakkuri (Maxsus son) 2021, 131-134 b.
7. <https://famisafe.wondershare.com/>
8. <https://www.youtube.com/>
9. <https://gs.statcounter.com/social-media-stats/all/uzbekistan>